

NEOLOGISMS IN THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR TRENDS OF EMERGENCE IN THE CORPUS

Shaxzoda NORMAMATOVA

O'zMU Xorijiy til va adabiyoti

(ingliz) yo 'nalishi 1-kurs talabasi

shahzodanormamatova0820@gmail.com

Tel: (90) 093 91 40

O'zMU professori f.f.f.d (PhD).dots.v.b

S.B.Xamdamova taqrizi asosida

Abstract: This article analyzes the emergence of neologisms in modern written Uzbek, their lexical and semantic characteristics, and their frequency of usage based on corpus linguistics.

Keywords: individual neologism, general language neologism, lexeme, slang, jargon, borrowed word.

НЕОЛОГИЗМЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ТЕНДЕЦИИ ИХ ПОЯВЛЕНИЕ В КОРПУСЕ

Аннотация: В данной статье анализируется появление неологизмов в современном письменном узбекском языке, их лексико-семантические особенности и частота употребления на основе корпусной лингвистики.

Ключевые слова: индивидуальный неологизм, неологизм общего языка, лексема, сленг, жаргон, заимствованное слово.

O'ZBEK TILIDAGI NEOLOGIZMLAR VA ULARNING KORPUSDAGI PAYDO BO'LISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi neologizmlarning zamonaviy yozma nutqda paydo bo'lishi, ularning leksik-semantik xususiyatlari va qo'llanish chastotasi korpus lingvistikasi asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: individual neologizm, umumiy til neologizmi, leksema, sleng, jargon, o'zlashma so'z.

Kirish. Globalizatsiya, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida neologizmlar til taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yangi tushuncha, hodisa va ixtirolar uchun mos atamalar yaratish zarurati nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy ehtiyojdan ham kelib chiqmoqda.

Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqalayotgan neologizmlar zamonaviy til hodisasi sifatida jamiyat tilshunoslik tafakkurining shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, neologizmlarning faol qo'llanilishi orqali tilning ekspressivlik darajasi ortib, uning zamonaviy ehtiyojlarga moslashuvchanligi namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda o'zbek tiliga chet tillardan, xususan ingliz, rus, hatto turk tilidan ko'plab yangi so'zlar kirib kelmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va xalqaro madaniy axborot oqimi kuchaygan sharoitda yanada tezlashmoqda. Yangi kirib kelgan so'zlar, odatda, texnologiya, axborot-kommunikatsiya, iqtisodiyot, biznes, siyosat, sog'liqni saqlash, ta'lim va madaniyat sohalarida faol qo'llanmoqda. Masalan, "blogger", "kontent", "onlayn", "skanerlash", "trending", "webinar", "reels" kabi so'zlar ilgari o'zbek tilida mavjud bo'lmagan, biroq hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, ta'lim muassasalari va hatto rasmiy nutqda ham tez-tez uchraydigan leksik birliklarga aylangan.

Neologizmlarning bunday ko'payishi tilning tabiiy taraqqiyot jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ular tilning leksik tarkibini boyitadi, zamonaviy tushuncha va hodisalarni ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu holat o'zbek tili sofliğini saqlash, milliy leksik fondni asrash masalalarini ham dolzarb qilib qo'ymoqda. Ayrim hollarda yangi so'zlar o'zbek tilining fonetik, morfologik va sintaktik tizimiga to'liq moslashmagan bo'lishi mumkin, bu esa ularning ommalashuv darajasiga va barqarorlik holatiga ta'sir qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaraganda, bu kabi neologizmlarning tilga kirib kelish jarayoni va ularning ishlatilish tendensiyalarini chuqur o'rganish muhim ilmiy vazifadir. Korpus lingvistikasi esa bunday tahlil uchun zamonaviy, ishonchli va keng qamrovli usul hisoblanadi. Matn korpuslari orqali yangi so'zlarning qayerda, qachon, qanday kontekstda paydo bo'layotgani, qanchalik tez-tez ishlatilayotgani va ularning semantik xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Tilda hosil bo'lgan yangi so'zlar **neologizmlar** (grekcha *neos* — yangi, *logos* — so'z) deyiladi [1.86]. Lug'at tarkibi neologizmlar hisobiga boyib boradi. Neologizmlar quyidagi xususiyatlari bilan lug'at tarkibida ajralib turadi:

- 1) yangi tushuncha, narsa yoki hodisaning nomini ataydi;
- 2) avval mavjud bo'lgan narsa yoki hodisaning belgilarini farqlaydi;
- 3) tildagi vositalarni tejaydi;
- 4) fikmi aniqroq ifodalash uchun xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligi sohasida taniqli olim, til nazariyasi va grammatikasi bo'yicha mutaxassis Shavkat Rahmatullayev o'zining **"Hozirgi o'zbek adabiy tili"** asarida neologizmning ikki xil talabga (ehtiyojga) ko'ra paydo bo'lishi haqida so'z yuritadi:

1. Yangi voqelikning yangi nomi sifatida. Bunda neologizm o'zi anglatayotgan voqelikning yagona nomi bo'ladi, nominativ vazifani o'taydi: *konfliktsizlik* (adabiyotshunoslik termini), *kosmodrom*- (har ikki leksema yangilik bo'yog'ini tezda yo'qotdi), *mahkamachilik*- kabi. 2. Nomlangan voqelikning yangi nomi bo'ladi. Haqiqiy neologizm asli shu. Bunda o'zigacha nomlangan voqelikni yangidan nomlaydi, natijada sinonimiya tug'iladi. Masalan, *fotokartochka*- leksemasi avval neologizm sifatida *suvrat*- leksemasi bilan sinonimik munosabat hosil etdi. Natijada *suv-rat*- va

rasm- leksemalarining leksik ma'nolarida chegaralanish, xoslanish voqe bo'layotir. Bu har ikki leksema □kartina□ ma'nosini ham, □fotokartochka ma'nosini ham anglataverar edi. Hozir esa *suvrat*- leksemasi asosan □kartina□ ma'nosini, *rasm*- leksemasi asosan □fotokartochka□ ma'nosini anglatish uchun ishlatilmoqda [2.94].

Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi mumkin. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi [2.92]. Har qanday neologizm dastlab ayrim shaxs nutqida voqe bo'ladi, bunday paytda u individual nutq neologizmi sanaladi. Masalan;

«Bek akang ko'rinmay qoldi-ku? dedi kesakpolvon labiga sigaret qistirib. Humkalla cho'ntagidan chaqqonlik bilan **yoqqich** olib unga olov tutdi...» (Tohir Malik)

Bu gapda **yoqqich** so'zi ruscha **zajigalka** so'zining kalkasi tarzida qo'llangan, uni asar muallifi (T.M) o'zi yasagan va o'zi individual nutq neologizmi sifatida birinchi bo'lib ishlatgan. Demak, bu so'z hozircha umumtil neologizmi darajasiga ko'tarilmagan, chunki u nutq ixtiyoridan til ixtiyoriga o'tmagan. O'zbek tilshunosligi sohasida taniqli olim, til nazariyasi va grammatikasi bo'yicha mutaxassis **Hasanxon Jamolxonov** fikriga ko'ra, umumtil neologizmi- til hodisasi, individual neologizm esa uslubiy hodisa sanaladi [3.209]. Leksikologiyada, asosan, umumtil neologizmi o'rganiladi. Umumtil neologizmi ham nisbiy hodisadir: til taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida neologizm bo'lgan so'z keyinroq neologizmlik «bo'yog'i»ni yo'qotib, zamonaviy leksik qatlam birligiga aylanishi mumkin. Masalan, *telefon*, *televizor*, *trolleybus*, *radio* so'zlari dastlabki paytlarda neologizm bo'lgan, hozir esa ularning birortasida yangilik bo'yog'i saqlanmagan, demak, bu so'zlar allaqachon neologizmlik holatidan chiqib, qo'llanishi odat tusiga kirgan leksemalarga aylangan. Leksemaning yangi bo'lishi boshqa-yu, yangilik bo'yog'iga ega bo'lishi boshqa. Har qanday yangi leksema neologizm bo'lavermaydi. Masalan, *kompyuter*-, *ksereks*-, *birja*- kabilar – o'zbek tiliga yaqin vaqtlarda kirib kelgan leksemalar, lekin bu leksemalarni neologizm deb bo'lmaydi, chunki bu leksemalar hozirgi o'zbek tilida yangilik bo'yog'ini yo'qotib, odatdagi leksemaga aylangan.

Zamonaviy o'zbek tilida neologizmlar turli sohalar bilan bog'liq holda shakllanmoqda. Ularning paydo bo'lishi, keng qo'llanilishi va til tizimiga singib

borishi, asosan, jamiyatdagi ijtimoiy, texnologik va madaniy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqdir. Quyida neologizmlarning ba'zi sohalar bo'yicha shakllanishiga misollar keltiriladi.

Avvalo, texnologiya va axborot-kommunikatsiya sohasida yuz berayotgan keskin taraqqiyot natijasida tilga ko'plab yangi atamalar kirib keldi. Bunday neologizmlarga "onlayn", "mobilograf", "streamer", "webinar", "hashtag" kabi so'zlarni misol keltirish mumkin. Ular, asosan, internet texnologiyalari va raqamli kommunikatsiya vositalarining hayotimizga kirib kelishi bilan shakllangan bo'lib, kundalik va ilmiy nutqda tobora faolroq qo'llanmoqda.

Ta'lim va ilm-fan sohasida ham zamonaviy metodlar, raqamli vositalar va interaktiv dars shakllariga oid yangi atamalar yuzaga chiqdi. Jumladan, "onlayn dars", "oflayn dars", "e-learning", "smart-ta'lim", "dual ta'lim", "MOOC", "akademik mobillik", "hersh indeks" kabi so'zlar yangi pedagogik yondashuvlar va raqamli ta'lim platformalari bilan bog'liq.

Madaniyat va san'at sohasidagi neologizmlar, odatda, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va muxlislar faoliyati bilan bog'liq. Bunga "vlog", "reels", "fan-art", "cosplay", "event", "stream" kabi so'zlarni keltirish mumkin. Ular ko'pincha ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashgan bo'lsa-da, o'zbek nutqida mustahkam o'rnatilmoqda.

Sog'liqni saqlash va tibbiyot sohasida esa so'nggi yillarda global pandemiyalar, masofaviy tibbiy xizmatlar va genetik tadqiqotlar bilan bog'liq yangi atamalar paydo bo'ldi. Masalan, "telemeditsina", "sanitayzer", "vaktsinatsiya", "PCR-tahlil", "karantin", "immunitet" kabi so'zlar keng jamoatchilik nutqida barqaror qo'llanila boshladi.

Iqtisodiyot va biznes yo'nalishida esa moliyaviy erkinlik, innovatsion g'oyalar va masofaviy ish shakllarining rivojlanishi tilga yangi leksik birliklarni olib kirdi. Ulardan ba'zilari — "startup", "frilans", "outsourcing", "investitsiya", "marketing", "kreditlash" kabi atamalardir. Bu neologizmlar korporativ madaniyat va zamonaviy ish bozoriga oid yangi tushunchalarni ifodalashda xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va kundalik so'zlashuv tilida ham ko'plab yangi birliklar paydo bo'ldi. Bunday neologizmlar orasida "follower", "unfollow qilmoq", "like bosmoq", "trend", "meme" kabi so'zlar mavjud bo'lib, ular, ayniqsa, yoshlar nutqida keng qo'llanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. *Neologizmlarning boshqa til hodisalaridan farqi:* Til – jamiyatdagi har qanday o'zgarishlarni o'zida aks ettiradigan tirik tizimdir. Har bir davrda, ayniqsa ilm-fan, texnologiya, madaniyat va ijtimoiy munosabatlar sohalarida ro'y berayotgan yangiliklar tilda yangi birliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu jarayonda neologizmlar, *o'zlashma so'zlar, jargon, sleng, kasb tiliga oid terminlar,*

dialektal birliklar kabi turli til hodisalari shakllanadi. Ularning har biri o'zining ma'no doirasi, qo'llanilish konteksti va til tizimidagi roli bilan ajralib turadi.

O'zlashma so'zlar — bu boshqa tillardan o'zbek tiliga o'zlashtirilgan so'zlardir. Ular yangi bo'lishi ham, eski bo'lishi ham mumkin. Masalan, “bank” (italyancha banca) [4.159], “televizor” (rus tilidan), “kompyuter” (ingliz tilidan), “ariza” (arab tilidan). Har bir o'zlashma so'z neologizm bo'lmashligi mumkin. Chunki ko'plab o'zlashma so'zlar allaqachon tilga singib ketgan va yangi tushunchani ifodalayotgani yo'q. Neologizm esa yangi tushunchaga bog'liq bo'ladi. “Maktab” so'zini oladigan bo'lsak, ushbu so'z arab tilidan kirib kelgan [4.532] o'zlashma so'z hisoblanadi, ammo bu so'z qadimdan mavjud va neologizm hisoblanmaydi.

Jargon — bu ayrim ijtimoiy guruhlar (masalan, yoshlar, sportchilar, texnik mutaxassislar, harbiylar) o'rtasida ishlatiladigan, umumxalq tilidan farq qiladigan maxsus nutq birliklaridir. Ular ko'pincha norasmiy va emotsional rangga ega bo'ladi. Masalan, “kassa qilmoq” (pul ishlamoq) “perevot” (xizmat joyini o'zgartirish – harbiy jargon). Jargonlar ko'pincha norasmiy, so'zlashuv nutqida qo'llaniladi va til tizimining rasmiy qatlamiga kirmaydi, ko'p hollarda ma'lum guruhlar ichida tushuniladi. Neologizmlar esa rivojlanib, adabiy tilga kirib borishi mumkin.

Bir davr uchun neologizm bo'lgan so'zlar keyinchalik neologizmlik belgisini yo'qotib, faol leksik qatlamga o'tishi mumkin. Masalan, *muzyorlar*, *traktor* kabi so'zlar tilda paydo bo'lganda neologizm bo'lgan. Lekin bugungi tilimizda bular yangi so'zlik belgisini yo'qotib, xalq tilida keng qo'llanadigan so'zlarga aylanib qoldi. Semantik neologizm yangi ma'noli so'zdir. Masalan, “yo'ldosh” so'zi bugungi tilimizda yangi ma'noda (yer yo'ldoshi) qo'llanyapti. Bu hodisa ham tarixiydir. Bog'cha dastlab “детсад” ma'nosida qo'llanganda semantik neologizm bo'lgan. Hozir esa neologizmlik belgisini yo'qotgan. Leksik-grammatik neologizmlar tilning o'zidagi so'z yasash vositalari yordamida hosil qilinadi. Leksik-grammatik neologizmlar ham, tarixiydir. Traktorch (traktorist) kabi so'zlar bugungi tilimizda faol leksik qatlamdan o'rin olgan.

Neologizmlar turli yo'llar orqali yuzaga keladi. Ulardan biri — yangi so'zlar yasashdir. Bu jarayonda ikki xil holat mavjud: birinchisi, butunlay yangi so'z yaratish. Masalan, o'zbek adabiyotida G'afur G'ulomning “Baxt tongotari” asarida uchraydigan “almashlab” (ekish ma'nosida), “sho'xshanlan” yoki “kuzaytir” kabi yangi so'zlar bunga misoldir [2.94]. Bular individual nutqdagi yangi so'zlardir. Ikkinchi holat — mavjud so'zga o'xshash, lekin unga teng keladigan yangi so'z yaratish. Bu ham asosan individual nutqda uchraydi. Bunga misolni ham G'afur G'ulom asari (Qalblarning mojarosi) da ko'rishimiz mumkin, “sezim” so'zi “sezgi”ga nisbatan, “shaklcha” so'zi “shaklan”ga, “mazmuncha” esa “mazmunan” so'zlariga muqobil sifatida ishlatiladi.

Ikkinchi yo'l — bu mavjud so'zlarning ma'nolarining kengayishi yoki o'zgarishi orqali neologizmlar hosil bo'lishidir. Masalan, “bekat” so'zi dastlab uzoq safarlar

uchun to'xtab dam olish joyi ma'nosida bo'lgan bo'lsa, keyinchalik "transport vositalarining to'xtash joyi" ma'nosini olgan [2.94].

Uchinchi yo'l esa so'zlarning boshqa tillardan o'zlashtirilishi orqali yangi ma'nolar hosil bo'lishidir. Masalan, "detal" so'zi dastlab "tafsilot", "mayda-chuyda" degan ma'noda ishlatilgan, ammo hozirda "qism" degan ma'noga ega bo'lib, ba'zan neologizmdan an'anaviy so'zga aylangan.

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining shakllanishi, qo'llanish chastotasi va semantik o'zgarishlarini tizimli va ilmiy asosda o'rganish uchun korpus lingvistikasi keng qo'llanilmoqda. Korpus lingvistikasi — bu matnlar to'plami asosida til hodisalarini aniqlash, tahlil qilish va baholashga yo'naltirilgan zamonaviy tadqiqot metodidir. Neologizmlarning paydo bo'lishi, tarqalishi va barqarorlashuvi jarayonlarini kuzatishda korpuslar ayniqsa muhim rol o'ynaydi.

Til korpusi — bu elektron shakldagi matnlar majmuasi bo'lib, u ilmiy tahlil uchun maxsus tuzilgan va belgilangan tartibda (leksik, morfologik, sintaktik) teglangan (ya'ni belgilab chiqilgan) bo'ladi. U adabiy asarlar, ommaviy axborot vositalari, rasmiy hujjatlar, internetdagi matnlar, ijtimoiy tarmoqlardagi yozuvlar va boshqa yozma manbalarni o'z ichiga oladi.

Korpus orqali neologizmlarni aniqlashning bir qator afzalliklari mavjud. Birinchidan, aniqlik yuzaga keladi, ya'ni korpus ma'lumotlari asosida neologizm bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlarning aniq kontekstdagi ishlatilishi ko'riladi. Ikkinchidan esa, statistik asos vujudga keladi, korpusda so'zlar chastotasi (qanchalik ko'p ishlatilayotgani) o'lchanadi. Bu esa neologizmning barqarorlik darajasini baholash imkonini beradi. Uchinchidan, agar korpus vaqt bo'yicha tuzilgan bo'lsa, neologizmning qaysi yilda yoki davrda paydo bo'lganini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, soha va uslubiy farqlanish kuzatiladi, aniqroq aytganda, neologizmning ko'proq qaysi uslubda (masalan, rasmiy, badiiy, so'zlashuv) ishlatilayotgani kuzatiladi va semantik tahlil qilish osonlashadi. Neologizmlar qanday kontekstlarda ishlatilayotgani orqali ularning ma'nosini, emotsional rangini tahlil qilish mumkin.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, zamonaviy o'zbek tili doimiy ravishda boyib borayotgan ochiq leksik tizimdir. Unda yuzaga kelayotgan neologizmlar — ijtimoiy hayot, ilm-fan, texnologiya, madaniyat va boshqa sohalaridagi yangiliklarning bevosita til vositasi sifatida shakllanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilidagi neologizmlarni korpus asosida o'rganish — ularning hayotga qanday kirib kelayotganini aniqlash, ijtimoiy va kommunikativ qiymatini baholash hamda ularning normallashtirish jarayonini ilmiy asoslashda dolzarb va istiqbolli yo'nalishdir. Kelgusida ushbu soha bo'yicha korpuslarni boyitish va avtomatlashtirilgan tahlil metodlarini qo'llash orqaligina neologizmlar ustidagi tadqiqotlar yanada samarali bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T., 2010. 86 b.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. "Universitet" nashriyoti. T., 2006. 92 b.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Talqin nashriyoti. T., 2005. 209 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T., 2006. 159 b.